

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Sharafiddinov

Farg'ona viloyatini Rossiya imperiyasining xom ashyo bazasiga aylantirilishi
(XIX asrning ikkinchi yarmi)..... 203

M.M.Temirova

O'zbekistonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlari 208

Q.Sulaymonov

Iqtisodiyotni globallashuvida informatsiyaning o'rni 213

X.E.Xodjamberdiyev

Ikkinchi jahon urushi yillarda O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirilishi va uning aholi turmush tarziga ta'siri..... 216

A.A.Xakimov, O.Sh.Ubaydullayev

Farg'ona vodiysi shaharsozlik madaniyatining xususiyatlari va rivojlanishi
(Sho'rabashot dehqonchilik madaniyati misolida)..... 222

M.M.Abdullayeva

Zamonaviy o'zbeklar shaxsiyatida gender stereotiplarining namoyon bo'lish darajasi
(Namangan viloyati misolida) 226

F.Abdurasulova

Buxoro amirligida diniy ta'llimning Amir Shohmurod va Amir Haydar hukumronligi
davrida rivojlanishi 232

A.A.Aloxunov

Yangilangan saylov tizimi – yurt taraqqiyotining kafolati..... 236

M.B.Siddiqov

Ikkinchi jahon urushi yillarda pensiya tizimi 241

G.A.Abdug'aniyeva

Harbiy xizmatga chaqiruvlarda tibbiy ko'rikdan o'tkazish masalasi 247

N.V.Karimova

Farg'ona vodiysi antik davr shaharlari tarixiy–topografiyasining o'rganilishi..... 252

ADABIYOTSHUNOSLIK**A.G.Sabirdinov**

Xudoyerberdi To'xtaboyevning qahramon yaratish mahorati 257

G.V.Abdullayeva

Bolalar she'riyatida lirik qahramon masalasi..... 260

S.Q.Mamatova

Nuh Alayhissalom obrazining tarixiy asoslari..... 267

N.Y.O'roqova

Yangi o'zbek she'riyatida o'simlik obrazlari talqini 271

D.A.Qahharova

Lirikada ko'ngil timsolining genezisi va tarixiy takomili..... 280

S.A.Xaqnazarova

An'ana va novatorlik: nazariy asos, takomil va turlar 287

M.Islomova

Hayot haqiqati va badiiy tafakkur 290

A.A.Qayumov, D.G'.Gafurova

Badiiy detalning poetik vazifasi (X.Do'stmuhammadning "Jodi" asari misolida) 294

Y.B.Eshmatova

Turk hikoyachiligidagi an'ana va yangilanishlar sintezi..... 299

Д. О.Турдалиев

Интеграция устного народного творчества в сказках а.с. пушкина: фольклорные корни и литературные трансформации 303

F.B.Sultonqulova

Usmon Azim she'riyatida lirik qahramon tabiatи 306

G.A.Jurayeva

Bolalar she'riyatida shakliy -mazmuniy yangilanish hamda izlanishlar..... 310



UO'K: 396.(575.1)

HARBIY XIZMATGA CHAQIRUVLARDA TIBBIY KO'RIKDAN O'TKAZISH MASALASI**ВОПРОС ПРОХОЖДЕНИЯ МЕДИЦИНСКОГО ОСМОТРА ПРИ ПРИЗЫВАХ НА ВОЕННУЮ СЛУЖБУ****THE ISSUE OF UNDERGOING A MEDICAL EXAMINATION IN MILITARY SERVICE CALL-UPS.****Abdug'aniyeva Gulira'no Alijon qizi** 

O'zbekiston fanlar akademiyasi, tarix instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'tgan o'ttiz yildan ortiq davr mobaynida harbiy xizmatga chaqiriluvchilar salomatligini ta'minlash masalasida amalga oshirilgan islohotlar orqali xizmatga layoqatsiz o'smirlarning armiya safiga yuborilishini kamaytirish, o'smirlarning salomatligini doimiy nazoratga olish orqali Qurolli Kuchlar safini sog'lom kadrlar bilan ta'minlashga erishilganligi tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье анализируется проведённая за более чем тридцатилетний период реформа в области обеспечения здоровья призывников, направленная на снижение количества несовершеннолетних, признанных негодными для службы, и повышение качества кадров в рядах Вооружённых Сил путём постоянного контроля за здоровьем молодёжи.

Abstract

This article analyzes the reforms implemented over more than thirty years to ensure the health of conscripts, aimed at reducing the number of adolescents deemed unfit for service and ensuring the Armed Forces are staffed with healthy personnel through continuous monitoring of the health of young people.

Kalit so'zlar: harbiy xizmatga chaqiruv bo'limi, Nazorat tibbiy chaqiruv komissiyasi, dispenser nazorati, bahorgi chaqiruv, kuzgi chaqiruv, yassi oyoqlik, varikoz, vazn yetishmasligi.

Ключевые слова: военкомат, Контрольная врачебная призывная комиссия, диспансерный контроль, весенний призыв, осенний призыв, плоскостопие, варикозное расширение вен, дефицит веса.

Key words: military conscription department, Control medical conscription commission, dispenser control, spring conscription, autumn conscription, flat feet, varicose veins, underweight.

KIRISH

XX asrning oxirida SSSRda mavjud bo'lgan muammolar yangi respubliklarga meros bo'lib o'tishi mavjud kamchiliklar uzoq yillar davomida ushbu mamlakatlarning turli sohalariga salbiy ta'sir ko'rsatishiga olib keldi. Shunday sohalar qatoriga harbiy tibbiyat tizimini ham kiritish mumkin. Buning asosiy sababi esa SSSR davrida olib borilgan noto'g'ri siyosat natijasida bo'lajak vatan himoyachilari, ya'ni o'smirlar salomatligida ko'plab muammolar paydo bo'lganligini ko'rsatib o'tish mumkin. Mamlakat manfaatlarini inson manfaatlaridan ustun qo'yilishi aholi salomatligiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazdi. Natijada yangi tashkil topgan respublika Qurolli Kuchlariga sog'lom va jismonan baquvvat kadrlar yuborish masalasi borasida qator qiyinchiliklar yuzaga keldi.

ADABIYOTLAR TALILI VA METODOLOGIYA

Mazkur mavzu yuzasidan tibbiyat sohasi vakillari L.U. Anvarova [4], N.V. Voronina[5] tomonidan harbiy bilim yurtlari kursantlarining salomatlik holatini har tomonlama baholash va uni yanada yaxshilash yo'llari hamda tinchlik davrida O'zbekiston Respublikasi harbiy xizmatchilarining ovqatlanishini ratsionalizatsiya qilishning gigiyenik asoslari masalalari yuzasidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlardan farqli o'laroq, mazkur maqolada harbiy xizmatga chaqiruv jarayonida tibbiy nazoratni olib borishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, armiya safidan salomatligi sababli xizmatga layoqatsiz deb topilib, zahiraga bo'shatishning sabab va oqibatlari hamda uni bartaraf etish chora-tadbirlari tarixiy jihatdan o'rganilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Mustaqillikning dastlabki yillarda armiyaga chaqiriluvchi yoshlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishning tahliliy xulosalari mazkur davrda ulg'ayib kelayotgan avlodning salomatlilik darajasini aniqlash va yaxshilashni tashkil etish shakllarini o'zgartirish zarurligini ko'rsatdi. Belgilangan tartibga ko'ra harbiy komissarliklar huzuridagi chaqiriluvchilarni ko'rikdan o'tkazuvchi tibbiyot komissarlari saralash vazifasini bajarishi, ya'ni chaqiriluvchi yoshlarni harbiy xizmatga yaroqli yoki yaroqsizligini aniqlash xizmatinigina bajarishi kerak. Ammo ana shu bosqichga kelgandagina o'smirlarning salomatligini haqiqiy tekshiruvdan o'tkazilishi, surunkali kasalliklarga duchor bo'lganlarning dardini birinchi marta aniqlash, dastlabki marta davolash va salomatligini tiklash ishlari boshlandi. Yoshlarni armiyaga chaqirish davrlarida har yili 2 ming nafardan ziyyod shifokor va 1,5 ming nafardan ko'proq o'rta tibbiyot xodimlari o'zlarining davolash ishlari bir chetga qo'yib, 8-10 oy davomida chaqiriluvchilar ishlari bilan shug'ullanishiga to'g'ri keldi. Sovet davrida harbiy xizmatga chaqiriluvchilarning o'z vatanidan iqlimi va tabiatni keskin farq qiluvchi hududda xizmatni o'tashi, bundan tashqari organizm jismoniy faoliyat darajasining keskin oshishi, o'zgacha shart-sharoitlar ko'p o'zbek o'g'lonlarida yashirin kasalliklarning zo'rayishiga olib keldi. Oqibatda xizmatdan nogiron bo'lib qaytish hollari ortib bordi. Chunki ularning kasalligi aslida bolalik, o'smirlik chog'larida boshlangan bo'lib, hastalik yashirin holda kechgan. Ular o'z vaqtida aniqlanmagan, kasalligi aniqlanganlari ham yaxshi sog'lomashtirilmagan.

Ma'lumki, salomatligi tufayli chaqiruv muddati kechiktirilganlar yangi chaqiruv mavsumigacha sog'lomashtirilishi zarur. Joylardagi poliklinika xodimlari tomonidan sog'lomashtirish ishlari o'z vaqtida olib borilmaganligi hamda zaruviy tibbiyot uskunlari yetarli darajada ta'minlanmaganligi sababli ularning ko'pchiligi yaroqsiz toifasiga kirib qolishi yoki yangi tekshiruv mavsumida yana qaytadan tekshiruvga yuborilishini talab etgan. Biroq bu holat sog'liqni saqlash tizimida faoliyat yurituvchi xodimlarning ko'p vaqt o'smirlarning kasalliklarini davolash bilan emas, balki chaqiriluvchilarni saralashga sarf etganliklari bilan bevosita bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash vaziri Sh.I. Karimov tomonidan keltirib o'tilgan fikrlar yuqorida xulosalarni yana bir bor tasdiqlaydi: "Sababi tibbiyot xodimlari yil davomida 7-8 oylab (chaqiriluvchilarni hisobga olish, yiliga 2 marta chaqiriqa ishtiroy etish) harbiy komissariatdagi chaqiruv hay'ati ishi bilan band bo'lishadi. Tegishli vrach mutaxassislar o'z o'rniда bo'Imagan tufayli qabulga kelgan bemorlar o'tasida nizolar paydo bo'ladi. Ana shu sonda bor, sanoqda yo'q tibbiyot xodimlari zimmalariga yuklatilgan rejadagi bemor o'smirlarni sog'lomashtirish bilan ham jiddiy shug'ullanishlari kerak. Ammo bunga vaqt qani? Ular faqat harbiy komissariatda o'tirib, yigitlarning sog'lomlarini saralash bilan band bo'lishyapti"[1;2].

Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston SSR sog'liqni saqlash vazirligi yetakchi olimlari, tibbiy-ilmiy muassasalar tomonidan Qurolli Kuchlar tizimida tibbiy tekshiruv haqidagi Nizomga qo'shimcha yo'riqnomalar, ya'ni kasalliklar ro'yhati ishlari chiqildi. Shunga ko'ra, SSSR Mudofaa vazirining tibbiy tekshiruv haqidagi avvalgi nizomida ko'rsatilgan bandlarga 50 dan ortiq jiddiy o'zgartirishlar kiritildi. 1990-yil 27-noyabrda Vazirlar Mahkamasi ushbu hujjatni tasdiqlagach, 412-R sonli yo'riqnomalar 1990-yilgi kuzgi chaqiriqdan boshlab SSSRda birinchi bo'lib, O'zbekiston SSRda kuchga kirdi. Keyinchalik mazkur hujjat SSSR Mudofaa vazirining 1991-yil 12-sentabrdagi e'lon qilgan yangi 436-tonli buyrug'ining yuzaga kelishi uchun asos bo'ldi. Natijada 1990-yilning kuzgi va bahorgi chaqirushi chog'ida 30 mingga yaqin o'zbekistonlik yoshlar salomatliklari yaxshi bo'Imaganligi tufayli armiya xizmatiga chaqirilmaganligi, salomatligi tufayli xizmatga noto'g'ri chaqirilganlar umumiyligi soni keskin kamayganligi, xizmatga loyiq deb topilganlar hamda kasalligi uchun chaqiruv muddati vaqtincha kechiktirilganlar soni 1989-yildagi 4,8 %dan 1991-yil 17,5%ga ko'tarilganligi katta ahamiyatga ega.

Tibbiyot xizmati vakillarida hech qanday vakolat yo'qligi sababli SSSR Mudofaa vazirligining 185-tonli buyrug'iga ko'ra chaqiriluvchi yigitlar ko'p kasalliklari bilan ham qurilish batalyonlariga xizmatga olingan[6]. Ushbu holatni bartaraf etish hamda armiyaga chaqirilish yoshidagi yigitlarning salomatligini mustahkamlash, chaqiriq komissiyalarida qattiq nazoratni ta'minlash ishlarni tashkil etish maqsadida chaqiruv tibbiy komissiya rahbari bir vaqtning o'zida O'zbekiston SSR Sog'liqni saqlash vazirining o'rinnbosari etib belgilandi.

Masalaning ikkinchi tomoni, xizmatga chaqirilayotgan yigitlar tibbiy ko'rikdan o'tayotganlarida ularda aniqlangan turli kasalliklar darajasining anchaginiyuqori ekanligidir. Achinarlisi shuki, umuman kasalligi birinchi marta shu ko'rikda aniqlangan yoshlarning ko'pchiligidagi mavjud kasalliklar

TARIX

allaqachon surunkali tus olganligi edi. Mazkur davrdagi tahlillar maktablardagi 1-sinfdan 10-sinfgacha bo'lgan o'quvchilarining salomatliklari ular ulg'aygani sari tobora yomonlashib borganligini ko'rsatgan. Ya'ni 50 foiz o'quvchilarning salomatligi zaifligi aniqlangan. Har yili profilaktik tekshiruvlar paytida 70 mingga yaqin bolalarning ko'rishi yomonlashgani, 40 mingdan ortig'ining umurtqa pog'onasi qiyshaygani, 100 mingdan ziyodida esa jismoniy rivojlanmaslik alomatlari borligi aniqlangan. Yildan yilga bolalar o'rtasida asabiy, ruhiy kasalliklar salmog'i tobora ortib borgan.

Bu esa davlat siyosati darajasidagi muammo sifatida suveren O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan zaruriy islohotlar amalga oshirishni talab etgan. Buning amaliy natijasi o'laroq 1991-yil 14-noyabrda 401-XII-sonli qarorga binoan armiya yoshigacha bo'lgan va chaqiriluvchi yoshlarni sog'lom kamol toptirish bo'yicha idoralararo muvofiqlashtiruvchi Kengash tashkil etilgan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad respublika prezidentining "Respublika yoshlarini armiyaga chaqirish va harbiy xizmatni o'tashini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni talablarini hayotga joriy qilish, mакtab yoshidagi bolalar va o'smirlar, chaqiruv yoshigacha bo'lgan hamda chaqiriluvchi yoshlarni o'z vaqtida sog'lomlashtirishdan iborat edi. Kengash raisi etib O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri Sh.I. Karimov tayinlangan. Muvoqiqlashtiruvchi Kengashning dastlabki yig'ilishi 1992-yil 20-yanvarda Toshkent shahrida o'tkazilib, unda 1991-yilning kuzgi chaqiruvi natijalari avvalgi yillardagi natijalar bilan solishtirildi. Kengash a'zolarining asosiy e'tibori turli vazirlik va mahkamalarda chaqiruv yoshigacha bo'lgan chaqiriluvchi yoshlarni sog'lom kamol topishi masalasiga yetarli ahamiyat berilmayotganligi tufayli yoshlar o'rtasida kasallik darajasi yuqori ekanligi, keljak avlodning salomatligini mustahkamlashda javobgarlikni oshirish zarurligiga qaratildi. Kengashning sayyor yig'ilishi 1992-yil 1-aprelda Andijon shahrida o'tkazilib, qatnashchilar 1990-yilda ilk bor Andijon shahrida tajriba-sinov uchun tashkil qilingan mакtablararo o'smirlar poliklinikasi faoliyati hamda shahardagi 3 ta mакtabda mакtab yoshidagi bolalarni sog'lomlashtirish ishlarining olib borilishi bilan yaqindan tanishdilar. Kengashning uchinchi ko'chma yig'ilishi 1992-yil 9-iyulda Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahrida bo'lib o'tdi. Tadbir qatnashchilari Shahrisabz shahridagi Bedil nomli 3-mакtab, yangi tashkil qilingan shahar mакtablararo o'smirlar dispanseri tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini o'rganib chiqdilar. Sababi respublikaning boshqa hududlarida ham mакtablararo o'smirlar poliklinikasi tizimini tashkil etish qanchalik oqilona qaror ekanligini aniqlash va amaliyotga joriy etishdan iborat edi. Kengashning 4-yig'ilishi 1993-yil yanvar oyida Samarqand shahrida o'tkazildi. Yig'ilishda yoshlarni sog'lomlashtirish borasida sog'liqni saqlash, xalq ta'limi vazirliklari, jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi hamda "Vatanparvar" tashkiloti faoliyatini muvofiqlashtirgan holda asosiy yo'nalishlari belgilandi. Jumladan, sog'liqni saqlash tizimida tashkil qilingan mакtablararo o'smirlar poliklinikalarini avtomatlashtirilgan skrinning tekshirish qurilmasi bilan ta'minlash va shu asosda xalq ta'limi tizimida bolalarni guruhlarga bo'lib, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga keng jalb qilish, bu borada mакtab jismoniy tarbiya o'qituvchilarini davolovchi jismoniy tarbiya usullariga o'rgatish kabi yechimlar taqdim etildi. Muvoqiqlashtiruvchi Kengashning 5-yig'ilishi 1993-yilning 15-iyunida Farg'onada o'tkazildi. Yig'ilishda mакtab yoshidagi bolalar va o'smirlar salomatligini doimiy nazoratda tutish va ularni sog'lomlashtirishni tashkil qilish uchun keyingi uch yil davomida Toshkent, Andijon, Termiz, Shahrisabz, Ohangaron, Marg'ilon, Jizzax, Guliston shaharlarida mакtablararo o'smirlar poliklinikalari, tumanlarda esa bo'limlar tashkil qilinib, ularda 7 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatishni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilindi[2;5-8]. Kengash tomonidan mакtablarda qo'shimcha jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini olib borish, bolalar, o'smirlar uchun sport mакtablari tarmoqlarini kengaytirish, nimjon, zaif bolalar bilan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini alohida o'tkazuvchi guruylar sonini yanada ko'paytirish zarurligi ta'kidlandi. Buning uchun har bir mакtabda yetishmayotgan sport zallarini tezkorlik bilan qurish va ularni zarur anjomlar bilan yetarli darajada ta'minlash kerakligi taklif sifatida kiritildi. Umumta'lim mакtablari, mакtablararo o'quv kombinatlari, ularning oziq-ovqat tayyorlovchi oshxonalari holatini tegishli sanitariya-gigiyena qoidalari talablariga muvofiqlashtirish lozimligi ta'kidlandi. Xalq ta'limi bo'limlari ixtiyoridagi tibbiy xodimlarni sog'liqni saqlash muassasalariga bo'ysundirilishi ham maqsadga muvofiq deb hisoblandi. Mazkur muammolarga yana bir yechim sifatida har bir chaqiruvchining tug'ilganidan mакtabga borguniga qadar va mакtabning 1-sinfidan 11-sinfiga qadar o'qish davrida salomatligiga taalluqli ma'lumotlarni alohida-alohida ikki bosqichda toplash taklif sifatida kiritildi. Ana shunday qilingandagina birgina malakali shifokor chaqiriluvchining harbiy xizmatga yaroqli yoki yaroqsizligi

to'g'risida o'z xulosasini chiqarishi mumkin bo'lishi ta'kidlandi. Bundan tashqari Indozneziya Respublikasining bu boradagi tajribasini o'rganish maqsadida 1992-yil avgust oyida "O'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish muammolarini kompleks ravishda hal etuvchi Respublika komissiyasi" a'zolari mazkur davlatga yuborilgan [2;21].

Biroq chorak asr davomida muammolar shu qadar chuqur ildiz otgan ediki, ularni bartaraf etish uzoq vaqt va mablag' talab etar edi. Buni 1993-yilning bahorgi chaqiruv natijalari ham tasdiqlaydi. Mazkur yilda harbiy va muqobil xizmatga chaqiriluvchilarning 69,5 % xizmatga yaroqli, 21,1 % foizi yaroqsiz, 9,2 % esa salomatligi tufayli xizmat muddati vaqtincha kechiktirilgan deb topilgan. Tibbiy ko'rikdan o'tgan chaqiriluvchilarning 14,4 % qayta tekshiruvga yuborilgan. Tekshiruv xulosasi sifatida chaqiriluvchi yoshlardagi kasalliklarni bolalik va o'smirlilik chog'larida hududiy davolash-profilaktika muassasalarida o'z vaqtida aniqlash va sog'lomlashtirish ishlari olib borilmaganligining natijasi ekanligi qayd etilgan[3;18]. Davolanish uchun harbiy xizmat muddati kechiktirilgan yoshlarning faqat 59% keyingi chaqiruvgacha sog'lomlashtirilgan. Bu ko'rsatkich Surxondaryo viloyatida 35%, Qashqadaryo viloyatida 33%, Navoiy viloyatida 32%, Buxoro viloyatida 29%, Jizzax viloyatida 24%, Farg'onan viloyatida 12 %ni tashkil etgan.

1993-yil bahorgi chaqiruv natijalarida kuzatiladigan yana bir muammo shuki, nosog'lom o'smirlarni "sog'lom" yoki "yaroqli" sifatida harbiy xizmatga yuborilishi edi. Mazkur chaqiruv davrida 112 nafar chaqiriluvchilardan "sog'lom" degan xulosa bilan armiya xizmatiga yuborilib, lekin xizmatning dastlabki kunlaridayoq turli kasalliklar tufayli "yaroqsiz" ekanligi aniqlangan. Eng yuqori ko'rsatkichlar – Toshkent shahri (25 kishi) va Toshkent viloyatida (17 kishi) kuzatilgan. Chaqiriluvchi yoshlarning 20,6 % harbiy hisobga olishda birinchi marta dispenser nazoratiga olingan. Bu 17 yoshlilar ichida 69,3% ni tashkil etgan. Bunday ko'rsatkichlar Qoraqalpog'istonda – 38,4%, Toshkent viloyati – 32,3%, Namangan viloyatida – 27,5 %ni tashkil etadi.

Bu muammolarni bartaraf etish maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirilgan. Jumladan, 1999-yil 25-avgustda Mudofaa vazirligining 202-sonli va Sog'lioni saqlash vazirligining 520-sonli "Chaqiruv komissiyalarining ish faoliyatini yaxshilash to'g'risida"gi qo'shma buyrug'iga ko'ra doimiy faoliyat ko'rsatayotgan Nazorat tibbiy chaqiruv komissiyasi a'zolari tomonidan har bir chaqiriluvchilarni harbiy qismlarga jo'natiladigan kun qayta tibbiy ko'rikdan o'tkazish belgilandi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad armiya safiga yuborilgan o'smirlarning salomatligi sababli xizmatdan qaytarilish hollarini oldini olishdan iborat edi.

2003-yilgi chaqiruvlarda muqobil tibbiy ko'rik komissiyalarining joriy etilishi, ularning tarkibiga Mudofaa vazirligi harbiy tibbiy komissiyalarining kiritilishi salomatligi harbiy xizmatni o'tashga to'g'ri kelmaganligi sababli qaytarilgan chaqiriluvchilar sonining keskin kamayishiga olib keldi. Masalan, 2002-yil bahorgi chaqiruv davomida 101 nafar chaqiriluvchi xizmatdan qaytarilgan bo'lsa, 2003-yil bahorgi chaqiruvlarda bu ko'rsatkich 50 nafarni tashkil etgan.

2007-yil 19-sentabrda tibbiy ko'rikdan o'tkazilgan yoshlarning 70 %ini salomatligini qayta tiklashga erishilgan[3;266]. 2009-2010-yillarda esa sog'lomlashtirilishi lozim bo'lgan o'smirlarning 87,3% sog'lomlashtirilgan bo'lsa, 2011-2012-yillarda o'smirlar sog'ligrini muhofaza qilish bo'yicha dispanser ko'rigida davolanishga muhtoj deb topilgan o'smirlarning 91,5 %ni salomatligi qayta tiklangan[3;331].

2016-yilga kelib mazkur sohadagi islohotlar yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, 2018-yil 25-dekabrda chaqiriluvchilar va harbiy xizmatchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish sifatini yanada yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaroriga asosan fuqarolar sog'lik va jismoniy rivojlanish holatining ko'rsatkichi bo'yicha harbiy xizmatga yaroqlilik darajasi 6 toifaga ajratildi[7]:

- "A" toifaga qo'shinlarning barcha turlarida harbiy xizmat o'tash mumkin bo'lgan fuqarolar;
- "V" toifaga havo-desant qo'shinlari va ularga tenglashtirilgan harbiy qismlardan tashqari qolgan qo'shin turlarida harbiy xizmat o'tashi mumkin bo'lgan fuqarolar;
- "S" toifaga salomatligi Qurolli Kuchlarning ayrim bir turida harbiy xizmat o'tashiga monelik qiladigan fuqarolar;
- "D" toifaga harbiy xizmatga vaqtincha yaroqsiz fuqarolar;
- "E" toifaga tinchlik davrida harbiy xizmatga yaroqsiz, urush davrida cheklangan ravishda harbiy xizmatga yaroqli fuqarolar;

TARIX

- “F” toifaga harbiy hisobdan chiqarilgan holda harbiy xizmatga yaroqsiz deb topilgan fuqarolar kiritildi.

Mazkur qaror asosida 2020-yil 31-yanvarda Mudofaa vazirining 3206-sonli buyrug’iga ko’ra “O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari aviatsiyasining uchuvchilar tarkibini tibbiy ko’rikdan o’tkazish tartibi to’g’risida”gi nizom tasdiqlandi[8]. Mudofaa vazirligi muassasalarida uchuvchilar tarkibini tibbiy ko’rikdan o’tkazish uchun tibbiy-uchuvchilik komissiyalari tashkil etildi.

XULOSA

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash mumkinki, mamlakat mudofaasini ta’minalash masalasi o’smir yoshlarning salomatligi bilan bevosita bog’liq. Istiqlolning dastlabki yillarida mazkur sohada ko’plab muammolar mavjud edi:

birinchidan, sovet tuzumi davrida chaqiruv davriga qadar o’smir yoshlar salomatligi yuzasidan hech qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmasligi ularda ushbu davrga kelib kasallikning surunkali davriga o’tishiga olib kelgan;

ikkinchidan, salomatligi harbiy xizmatga yaroqsiz deb topilgan yoshlarning qurilish batalyonlariga yuborilishi va boshqa iqlim sharoitlarida ularda mavjud kasallikning yanada zo’rayishi oqibatida fuqaro nogironlik tofasiga kirib qolish hollari kuzatilgan;

uchinchidan, tibbiyat xodimlari yil davomida kelajak avlodni sog’lomlashtirish, kasalliklarni oldini olish, mavjudlarini bartaraf etish bilan emas, balki chaqiriluvchilarni tibbiy tekshiruvdan o’tkazish bilan mashg’ul bo’lishi xizmatga yaroqsiz chaqiriluvchilar sonining keskin ortishiga sabab bo’lgan;

to’rtinchidan, mamlakat mustaqilligi qo’lga kiritilgach mazkur sohada olib borilgan islohotlar natijasida mavjud muammolar bosqichma-bosqich bartaraf etildi. 2016-yilga kelib mazkur sohada tub burilish yasaldi. Xususan, chaqiriluvchilarni sog’lik va jismoniy rivojlanish holatiga ko’ra toifalarga ajratish orqali ularning salomatligini doimiy nazorat qilib borish Qurolli Kuchlar tarkibini sog’lom yoshlar bilan to’ldirish imkonini berdi. Shu bilan bir qatorda ularni salomatlik holatiga mos ravishda qo’shin turlariga yuborish harbiy xizmatchilarda ortiqcha jismoniy zo’riqish holatlarini kamaytirish imkonini berdi.

Mamlakat hukumati tomonidan zaruriy islohotlarning olib borilishi va mazkur sohaga aloqador vazirlik hamda tashkilotlar faoliyatining muvofiqlashtirilishi bugungi kunda milliy armiya tarkibini jismonan va ma’nан yetuk kadrlar bilan ta’minalashga asos bo’lib xizmat qildi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Armiyaga kimlar chaqiriladi. Turkiston. 1992-yil. 19-fevral. –B.2.
2. O’zbekiston Milliy arxivi (O’zMA) hujjalari.
3. O’zbekiston Mudofaa vazirligi davlat arxivi (O’zMVDA) hujjalari. O’zMVDA, 4. Анварова Л.У. “Комплексная оценка состояния здоровья курсантов военных училищ и пути дальнейшего его улучшения”. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата медицинских наук. Ташкент. 2007;
5. Воронина Н.В. “Гигиеническое обоснование рационализации питания военнослужащих Республики Узбекистан в мирное время”. Диссертация на соискание ученой степени доктора медицинских наук (DSc). Ташкент. 2019.
6. https://e-ecolog.ru/docs/ZnJy1NGFDV2dtggOK745L?utm_referrer=https%3A%2F%2Fwww.google.com%2F
7. <https://lex.uz/docs/-4127311?ONDATE=05.05.2021>
8. <https://lex.uz/docs/-4723331>